



MIRKARIM OSIM



SEHRLI SO'Z

Mirkarim OSIM



SEHRLI SO‘Z

*Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2017*

UO'K 821.512.133-32
KBK 83.3(50)-8
O-80

*Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining
576 yilligiga bag'ishlanadi.*

Osim, Mirkarim.

O-80 Sehrli so'z [matn]/M. Osim. Navoiy haqida hikoyalari. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2017. – 80 b.
ISBN 978-9943-05-945-0

Ushbu to'plamda taniqli yozuvchi Mirkarim Osimning buyuk mutafakkir Alisher Navoiy haqidagi hikoyalari jamlangan. Hikoyalarda ulug' shoir olijanob inson, sadoqatli do'st, yosh ijodkorlarga mehribon ustoz sifatida gavdalanadi. Muallif Navoiyning ma'naviy qiyofasini chizishda aniq tarixiy faktlarga suyanagan.

UO'K 821.512.133-32
KBK 83.3(50)-8

ISBN 978-9943-05-945-0

© Mirkarim Osim, 2017
© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2017



YAXSHINING SHAROFATI

— Musofir shahrida rangingizni sargʻaytirib yurmoqdin murod nedur? — deb soʻrab qoldi Alisherdan hujrasiga mehmon boʻlib kelgan pahlavon Muhammad. — Oʻz shahringiz Hirotgʻa keting, Mashhadda sizga ne bor?

Podshoh Abulqosim Bobur oʻlgandan keyin¹ Navoiy Mashhad shahrida qolib, oʻqishni davom ettirayotgan edi.

— Hirot shahrida taxtga oʻltirgan yangi podshoh meni qanday qarshi oladur, deb mulohaza qiladurmen, — javob berdi Alisher. — Abu Said zolim podshoh. Ulugʻbekning onasi Gavharshodbegimni va koʻp shahzodalarni oʻldirdi. Mening tagʻoyilarim aning dushmani tururlar, shul sababdin alar mirzo Husayn xizmatidadurlar.

Ketmon soqol pahlavonning kepchikdek qip-qizil yuzida hayrat alomati paydo boʻldi.

— Tagʻoyilaringiz bilan ne ishingiz bor? Siz sipohi ermas, shoir odamsiz. Ilkingizda nayza ermas, qalam tutib kelgansiz. Ne sababdin sizga zulm qilsun? Hirotida yaxshi odamlar koʻp. Podshoh sizga yomon koʻz bila qarasa, alar joningizga aro kirurlar.

¹ Sulton Abulqosim Bobur 1457-yilda vafot etgan edi.

Navoiy butun vujudi bilan ona shahriga intilar, qanot bog‘lab uchib ketgisi kelardi. Hamma do‘stlar unga shu maslahatni berar edilar. Biroq shoir oldiga qo‘yilgan qaynoq sho‘rvani ichishdan qo‘rqqan kishidek sabr qilib turdi. Nihoyat, mamlakatda bir qadar osoyishtalik o‘rnatilgandan so‘ng Hirotda qaytishga jazm qildi.

Hirotdagi do‘stlari Alisherni xursandlik bilan kutib olishdi. Goh unisi, goh bunisi uni mehmonga chaqirib, yangi yozgan she‘rlarini o‘qitishar edi. Bir-ikki hafta vaqti xursandchilik bilan o‘tdi.

Endi o‘n to‘qqiz-yigirmaga kirgan tajribasiz yigitlar singari Navoiy pulni rasamadi bilan sarf qilishni bilmas edi. Qo‘li ochiqligi tufayli ko‘p o‘tmay otadan qolgan uncha-muncha pul ham somondek sovurilib ketdi, birovdan bir pul so‘rashni u o‘ziga or deb bilardi. Bir kuni yosh shoirning muxlisi va otaxoni Hasan Ardasher uni ko‘chada uchratib, rangi ro‘yim ko‘rdi-yu, kapalagi uchib ketdi.

– Sizga ne bo‘ldi, Alisher? Xastamusiz?

– Yo‘q, sog‘-salomatmen. Faqir kishi panada, deganlaridek, o‘z kulbamba bir qoshiq suv bila bir burda nong‘a qanoat qilib yotibmen.

– «Rang ko‘r, hol so‘r» deganlar burung‘ilar. Yemoq-ichmoqdin qisilib qolg‘on ko‘rinasiz. Menga boqing. She‘r bilan qorin to‘yg‘izib bo‘lmaydur. Sizga bir ish topayik.

Agar she‘r muxlisi bo‘lg‘on bir insofli amaldor sizni mulozim qilib olmoqqa rizolik bersa, xo‘p dermi erdingiz?

– Munosib bir kishiga mulozim bo‘lmoqdin or etmaydurmen. Birovning xizmatin qilmoq ayb ermas.

– Rost aytdingiz, bu nomus qilaturgan ish ermas. So‘zima quloq bering. Men bir kun Sulton Hasanbekning uylaridagi majlisda sizning bir she‘ringizni o‘qib erdim. Ul kishiga bag‘oyat xush keldi. Burunroq menga, bir pokiza, fahm-farosatli yigit bo‘lsa navkar qilib olur erdim, deb erdilar. Men sizni aytib ko‘ray. Qo‘li ochiq odam, yaxshi maosh bersa kerak.

Navoiy uning taklifini qabul qildi. Yosh bo‘lsa ham, she‘r muxlislari orasida dong‘i chiqqan Navoiydek shoirni mulozim qilib olganidan Hasanbek faxrlanar edi. Mulozim yoki navkar xizmatkorlik lavozimidan bir pog‘ona baland bo‘lib, u bek bilan xizmatkorlar o‘rtasida turadi, xo‘jayinning buyruqlarini xizmatkorlarga yetkazadi, dasturxon yozib, xo‘jayin oldiga ovqat qo‘yadi, u bilan birga o‘tirib ovqatlanadi, suhbat quradi.

Sulton Hasanbek odamshavanda, xushmuomala kishi edi-yu, lekin bir nuqsoni bor edi: u kechayukunduz sharob ichardi, otasiga taqlid qilib, uning o‘g‘li Mirzobek ham ko‘pincha mast bo‘lib yurar edi. Buning ustiga Navoiy jangovar bek bilan safarga birga chiqish, sahro, tog‘-toshlarda yurish, harbiy safar qiyinchiliklarini u bilan baham ko‘rishga majbur edi.

Navoiy o‘z tengi keladigan Mirzobekni ichkilikdan qaytarishga, unda she‘r va musiqiyga havas

uyg'otishga harakat qilardi. Musiqiyga havas uyg'otish qiyin emasdi-yu, ichkilikdan ko'nglini sovutish mumkin bo'lmadi. Biroq shunga qaramay Mirzobek ko'ngli oq yigit bo'lib, mast bo'lmagan vaqtlarida juda xushmuomala va rahmdil edi. Kunlardan bir kun yuz bergan bir hodisa buni tasdiqladi.

Husayn Boyqaro Xorazmda kuch to'plab doimo Xurosonga hujum qilib turardi, uning bir to'da askarlari Jah-Jah degan joydagi jangda mag'lub bo'lib, bir qismi qochib qutuldi, bir qismi o'rovda qolib, asir tushdi. Bu jangda Abu Saidning yosh askarboshilaridan Mirzobek o'zining usta jangchi, mohir qilichboz ekanini ko'rsatdi. O'sha vaqtning odatiga ko'ra asirlarni askarboshilar va navkarlarga ikkitadan-uchtadan bo'lib berar, ular bu asirlarning kallalarini olib, o'z hukmdorlariga yuborar edilar.

Mirzobek qarorgohga jangdan charchab keldi-da, qurol-yarog'ini chodirning o'rtasidagi ustunga osdi va o'zini yerdagi namat ustiga tashladi. U hali o'ziga kelmagan, harsillab nafas olar, ko'zlari bejo edi.

— Tomog'ingizni ho'llab olsangiz, o'zingizga kelursiz, — dedi jangga bormay chodirda qolgan Navoiy.

Mirzobek o'rnidan turib o'tirib, piyoladagi suvni ichib, mo'ylabini artdi-da:

— Shukr, — deb qo'ydi entikib. — O'zi dog'i hazilakam jang bo'lmadi. Yaxshiki, Ahmad hoji o'z cheriki bila yetib keldi, yo'qsa, ishimiz xarob erdi.

U jang tafsilotlarini gapirib berayotganda, tashqaridan oyoq tovushi, ot pishqirig‘i eshitildi. Qurol-yarog‘li tavochi (xabarchi) bek chodir ichiga kirib salom berdi-da, xirillab:

— Mirzobek, ulushingizni keltirdim; ikki bandi, — dedi. — Darhol kallalarini olib, mirzaga yiborg‘aysiz!

Navoiy va darhol qurollarini taqib olgan Mirzobek tashqari chiqib, qurolli soqchilar yonida turgan, kiyimlari yechib olingan ikki asirni ko‘rishdi. Ularning biri novchagina, qop-qora soqolini turkmancha qirdirgan yigit edi. U boshini g‘oz ko‘tarib, mag‘rur boqib turar, ko‘zlarida qo‘rquvdan asar yo‘q, uning yonidagi o‘rta bo‘yli kallador sherigi ma‘yus yerga tikilganicha qotib qolgan edi.

Tavochi bek ikkala asirning kallasini hukmdorga yuborish kerakligini yana bir uqtirib otiga mindi, soqchilari uning oldiga tushib, bosh qarorgoh tomon jo‘nadilar. Navoiy kallasi hozir olinishi kerak bo‘lgan yigitlarga achinib qarar, ularni qutqarish yo‘lini qidirar edi.

— Bek, bul ikki bandini qatl etib baraka topmaymiz, — dedi. — Jangda odam o‘ldirmakning yo‘li boshqa. Siz g‘animni o‘ldirmasangiz, ul sizning boshingizni olur.

Ammo hali gunoh ish qilib ulgurmagan, qurol-yarog‘siz ikki asir yigitni bejon qilmoq ulug‘ gunoh.

— Na qilay, farmoni oliyg‘a qarshu bormoq mumkin ermas.

– Biz podshohning farmonini ham yerina keltirurmiz, bularni dog‘i o‘ldirmaymiz. – U savol nazari bilan qarab qolgan Mirzobekka uzoqdagi bir chinorni ko‘rsatdi.

– O‘shal og‘och tubinda bir o‘q yeb o‘lgan askarni ko‘rib erdim. Boshi butun. Yarmoq berilsa, bir askar aning kallasini keltirgay. Biz bir bandining kallasi o‘rnig‘a ani yiborg‘oymiz. Ammo ikkinchisin qanday xalos eturmiz, bilmayman. – Navoiy negadir birinchi navbatda novcha askarni qutqarmoqchi edi, ikkinchisiga achinib turardi. Mirzabekning yuzi yorishib ketdi.

– O‘sha chinordin yuz qadamcha narida, soy bo‘yidag‘i xarsangtosh yonida men mirza Husaynning bir navkarini yelkasidan chopib tashlag‘on erdim. Aning dog‘i boshin keltirsinlar, – shuni deb Mirzobek cho‘ntagidan bir dinor chiqarib, Navoiyga tutqizdi.

Navoiy qo‘shni chodirga kirib, tanish bir askarni boshlab keldi va qo‘liga tilla pulni tutqizib, voqeani tushuntirdi.

Oradan chorak soat o‘tmay kesib kelingan ikki kallani xurjunga solib, tavochi bekka jo‘natdilar, joni omon qolgan ikki asirni kechgacha chodirda olib o‘tirib, qorong‘i tushganda qo‘yib yubordilar. Navoiy ular bilan xayrlasharkan, har biriga bittadan non berdi.

Sulton Hasanbek Mirzobekning qilgan hayrli ishini eshitib, xursand bo‘ldi va unga shunday dedi:

– O‘g‘lim, Navoiyning sharofati bila savob ish qilibsen. Men ikkingizdan ham behad xursandmen. Ammo tilingizga ehtiyot bo‘ling. Agar birov bul ishdin xabardor bo‘lib, Abu Saidga yetkazsa, holingizga voy!

* * *

Abu Said Xurosonni o‘ziga itoat ettirgandan keyin Ozarbayjonni qo‘lga kiritishga bel bog‘ladi va G‘arbiy Erondagi bir jangda halok bo‘ldi. Poytaxti Hirot esa, paytdan foydalanib Xurosonga bostirib kirgan Xusayn Boyqaro tomonidan ishg‘ol qilindi. Abu Said tomonidan Samarqandga surgun qilingan Navoiy Hirotga qaytib keldi va davlat ishlariga qatnashib, mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o‘rnatishda Husayn Boyqaroga yordam berdi.

Bir kun shoir saroyga kelganda soqchilik qilib turgan navkarlardan biri unga yaqin kelib salom berdi. Navoiy bu qora soqol novcha odamni allaqayerda ko‘rgandek edi.

– Tonimadingizmu? Ajab! Abu Said zamonida meni va bir do‘stimni o‘limdan qutqorg‘on erdingiz. Navoiy uni darhol tanidi.

– Sizni yana sog‘-salomat ko‘rib behad quvondim. Do‘stingiz qayda, boshi omonmi?

– Boshi omon. O‘shal kuni mendin ayrilib, o‘z qishlog‘i Fayziobodg‘a ketdi, men o‘z cheriklarimizga borib qo‘shildim.

– Borakallo. Mirzoga sodiq ekansiz. Omon bo‘ling.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/2847> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/2847> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/2847>